

SH. SARIQOV, SH. SARIQOVA,
M. JO'RABOYEVA, K. ALLAMJONOV

IQTISOD VA SOLIQ ALIFBOSI

Soliq bo'yicha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan,
qayta ishlangan ikkinchi nashr

Umumta'lim maktablarining
4-sinfi uchun o'quv qo'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
umumta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etgan*

TOSHKENT
"YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE"

2008

НАМБУРИЙ
НУСХАЛАР

65 a 71

65.261.4 a 71

**Loyiha rahbari — O'zbekiston Respublikasi
Davlat Soliq qo'mitasi raisi B. Pariyev**

*Davlat Soliq qo'mitasi raisining
birinchi o'rinbosari E. Gadoyev umumiy tahriri ostida*

Mas'ul muharrir – B. Haydarov.

Taqrizchilar: *F. Mirzayev, Davlat Soliq qo'mitasi boshqarma
boshlig'i;*

N. Xo'jayev, iqtisod fanlari doktori, professor;

*X. Xotamova, Respublika ta'lim markazi, iqtisodiy
ta'lim sektori boshlig'i.*

Materiallarning fanlar bo'yicha taqsimlanishi:



– O'qish



– Atrofimizdagi olam



– Ona tili



– Matematika



– Mehnat



– Odobnoma

65
I-98



HD 34848
091

Iqtisod va soliq alifbosi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun o'quv qo'l. /
Sh. Sariqov, Sh. Sariqova, M. Jo'rabaeva, K. Allamjonov, Mas'ul muharrir B. Haydarov. –
2-soliq bo'yicha materiallar bilan to'ldirilgan, qayta ishlangan nashr. – Toshkent: Yangiyul
poligraph service, 2008. – 48 b.: rasm.

I. Sariqov, Sherzodbek va boshq.

BBK 65я71

ISBN 978-9943-309-83-8

BBK 65.261.4я71

© "Yangiyul poligraph service", 2008
© Sh. Sariqov, 2008



Hurmatli o'quvchilar!

“Iqtisod va soliq alifbosi” darslari orqali 1-2-3-sinflarda iqtisodiyot haqida qator bilimlarga ega bo'ldingiz. Mazkur bilimlarni umumlashtirib, tashkilot va korxonalarning iqtisodiyotini tahlil qilishni o'rganish vaqti keldi. Chunki sizda endi iqtisodiyot va soliq haqidagi tushunchalar bilan birga mustaqil fikr yuritish qobiliyati ham mujassam.

4-sinfda maktab kutubxonasi, oshxonasi, ustaxonasi va o'quv-tajriba maydoni iqtisodiyoti bilan tanishasiz. Kommunal xizmatlar va ularga to'lovlarni amalga oshirishni o'rganib olasiz. Yuqoridagi bilimlarni yetarli darajada egallashingiz, kundalik hayotda uchraydigan iqtisodiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilib, oilangizga foyda keltirishingizga zamin bo'lib xizmat qiladi.

I. MAKTAB KUTUBXONASINING IQTISODIYOTI

1.1. Kutubxona jihozlari. Kitoblar va o'quv qo'llanmalar. O'quvchi – kutubxona kitoblarini saqlash bo'yicha iqtisodiy faoliyat qatnashchisi

1. O'qing.

4-sinf o'quvchilari sinf rahbari Hilola opa bilan kutubxonaga kirdilar.

Hilola opa o'quvchilarni kitoblar, xona jihozlari bilan tanishtirdi.

Kitob javonidagi kitoblarni ko'zdan kechirayotgan Akbarning ko'zlari chaqnab ketdi.

Akbar o'qituvchisidan:

– Bu kitoblar kimning mulki, ular qanday mablag'lar hisobiga xarid qilingan? – deb so'radi.

– Bu kitoblar maktab mulki. Maktab esa davlatniki. Demak, kitoblar ham davlat mulki. Bu kitoblarni xarid qilish uchun mablag'ni davlat fuqarolar va korxonalar to'lagan soliq hisobidan sarf qilgan. Sizlarning ota-onalaringiz ham soliq to'lovchi bo'lganlari uchun bu kitoblarning xarid qilinishida ularning ham hissaları bor, – deya tushuntirdi Hilola opa.

– Demak, bu kitoblarning kutubxonaga keltirilishiga bizning oilamiz ham daxldor ekanda? – deb so'radi Dilmurod.

– Ha, albatta, shuning uchun ham kitoblarni o'z mulkimizdek asrashimiz kerak. Bu kitoblar bizning ma'naviy boyligimiz, – deya so'zini yakunladi o'qituvchi.

Savollarga javob bering.

1. Sizning maktabingizdagi kutubxonada qanday kitoblar bor?
2. Kitoblarni boylik deb atasak bo'ladimi? Nima uchun?
3. Maktab kutubxonasiga kitoblar qanday mablag'lar hisobiga keltiriladi?
4. Kutubxonadagi yaroqsiz kitoblar o'rnini qay tariqa to'ldirilishini bilasizmi?

2. 1. Kitob – ma'naviy ...dir.
2. ... – bilim bulog'i, o'quvchining o'rtog'i.
3. Kitob – ... bulog'i, o'quvchining o'rtog'i.



3. O'qing.

Davlat budjeti

Munira bir narsaga tushuna olmasdan maktab kutubxonachisi Yulduz opadan so'radi:

– Yulduz opa, aytingchi, nega ayrim darsliklarning orqasiga narxi yozilgan bo'ladi-yu, ayrimlarinikida yo'q.

– Munira, orqasiga narxi yozilgan darsliklar sotish uchun chiqarilgan darsliklardir. Uni sotib olsang u sening shaxsiy mulkingga aylanadi. Agar sen orqasiga narxi



yoziilmagan darsliklarning ichiga sinchiklab nazar solsang, ularning ikkinchi yoki oxirgi betlarida Respublika Darsliklar aylanma jamg'armasi (DAJ) hisobidan "ijara uchun chop etildi" yoki "Davlat budjeti mablag'lari hisobidan chop etildi" degan yozuvlarni o'qishing mumkin.

Davlat budjeti hisobidan chop qilingan darsliklar maktab kutubxonasida turadi va ulardan o'quvchilar bepul va vaqtincha foydalanishlari mumkin. Respublika Darsliklar aylanma jamg'armasi hisobidan chop qilingan darsliklar esa o'quvchilarga ijaraga beriladi.



Ijaraga olingan darslik uchun ijara haqi to'lanadi, – tushuntirdi Yulduz opa.

– Davlat budjeti degani nima? – so'radi Munira.

– **Davlat budjeti** – bu davlat xazinasini, davlatning puli to'planadigan va sarf qilinadigan joy. Menga o'xshagan yoshi kattalar to'laydigan soliqlar, sening oilangning katta yoshdagi a'zolari to'lagan soliqlar ham ana shu joyga kelib tushadi. Kutubxonamizdagi darsliklar ana shu budjet hisobidan olingan. Darsliklar aylanma jamg'armasidagi mablag'larning ham bir qismi davlat budjetidan qoplanadi. Darsliklarning otanangning puliga sotib olingan bo'lsa ham, kutubxonadan bepul berilgan bo'lsa ham, ijara uchun olingan bo'lsa ham, ularni asrab-avaylab foydalanish sening burching, – uqtirdi Yulduz opa.

Savollarga javob bering.

1. Nega ayrim darsliklarning orqasida narxi bor, ayrimlarinikida esa yo'q ekan?
2. Davlat budjetini qanday tushundingiz?
3. Ijara uchun olgan darsliklaringiz qanday mablag'lar hisobiga chop qilinar ekan?

4. Matndagi so'zlardan foydalanib, bo'sh kataklarni to'ldiring va hosil bo'lgan so'zni o'qing.



5. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, maqollarni ko'chiring.

- 1) Bilimli kishi o'zar, 2) Kitob bilim ... ,
Bilimsiz ... to'zar. O'quvchining o'rtog'i.
3) Kitobim bilim 4) Kitobdan yaxshi ... yo'q.
5) Bilim ... baxt keltirar.

Maqollarni izohlab bering.

6. Nuqtalar o'rniga 3 ta harf qo'ying va so'zlarni o'qing. Shu so'zlar qatnashgan maqollarni bilasizmi?

Ki(...), bi(...), boy(...), so (...), bud(...).

7. Bo'laklarni o'rniga qo'yib birlashtirsangiz maqol hosil bo'ladi.

TOB

RO

CHI


AQL

G'I

KI

Maqolning iqtisodiy ma'nosini tushuntirib bering.

8. Krossvorddagi bo'sh kataklarga qo'lingizdagi kitobning nomini to'g'ri yozsangiz qanday kitob ekanligini bilib olasiz.



9. Yashiringan so'zni toping.

$350 + 90$

O

$95 + 80$

I

$850 - 530$

K

$640 - 210$

T

$500 + 470$

B

320 175 430 440 970



Kimga foyda?

Jasur yangi olgan kitobini uyda o'qib o'tirgan edi. Shu payt do'sti Adham chaqirib qoldi. U o'qiyotgan kitobini stol ustiga qo'yib, do'sti bilan o'ynagani chiqib ketdi.



Qaytib kelganida, kichkina ukasi Olimning kitobini qaychi bilan qirqib olgan edi.

Ertasi kuni u kutubxonaga kirib, bo'lgan voqeani aytdi. Kutubxonachi unga yirtilgan kitob evaziga kitob narxidan ko'proq jarima to'lash kerakligini tushuntirdi.

Jasur bularning barchasini dadasiga aytdi. Dadasiga unga jarima to'lash uchun pul berar ekan, shunday dedi:

– Sen kitobga beparvolik bilan qaraganing uchun shunday bo'ldi. Bu pulga sen juda ajoyib yangi kitob sotib olishing mumkin edi. Sen kutubxonaga ham, o'zingga ham zarar keltirding. Doimo kitoblarni ehtiyot qil.

Shundan keyin Jasur kitoblarini avaylab saqlaydigan bo'ldi.

Savollarga javob bering.

1. Jasur kutubxonadan olgan kitobga qanday munosabatda bo'ldi?
2. U kutubxonaga qanday zarar keltirdi? O'ziga-chi?
3. Jarimani nima uchun to'ladi?
4. Jasur voqeadan qanday xulosa chiqardi?

II. MAKTAB OSHXONASI IQTISODIYOTI



2.1. Oshxona jihozlari. Oshxona xarajatlari. Oshxona daromadlari. Oshxonadagi mahsulotlarni tejab-tergash har bir o'quvchining burchi

1. O'qing.

Bizning oshxona

Bizning maktabimiz oshxonasi juda ham boy. Oshxonaga kirsak juda ko'p buyumlar va jihozlarga ko'zimiz tushadi. Jumladan, ovqat va idishni qo'yish uchun turli shkaflar, elektr plitalari va yana ko'pgina jihozlar bor. Bularning hammasi, bizningcha, mulk hisoblanadi. Bu mulklarning bari kimniki, oshpaznikimi yoki maktab oshxonasi bo'lganligi uchun maktabimiznikimi?

Albatta, oshxona maktabniki, maktab esa davlatniki, shuning uchun maktab oshxonasi ham davlat mulkiga tegishli. Ya'ni oshxona qurilishiga



va undagi jihozlarni sotib olishga davlat budjetidan, bizning otalarimizga o'xshagan soliq to'lovchilarning pullaridan sarf qilingan.

Shuning uchun ham biz oshxonamizni va undagi jihozlarni asrab-avaylashimiz zarur.

Savollarga javob bering.

1. Sizning maktab oshxonangizda qanday jihozlar bor?
2. Bu jihozlar, sizningcha, kimniki?
3. Nima uchun oshxonadagi jihozlarni oshpazniki deya olmaymiz?



2. Katakchalarni uchta oshxona jihozi nomi bilan to'ldiring.

Ch Ch K

3. Davom ettiring:

1) O'zi bitta, ko'zi ...

2) O'zi bitta, qulog'i ...

3) Chin qushim, ...



4. O'qing.


O'z kasbining ustasi

Bilol aka qo'li shirin oshpaz bo'libgina qolmay, balki ancha ishbilarmon hamdir. U kishi oshxona uchun **xarajat** qilishdan oldin, albatta uning natijasini **hisob-kitob** qiladi. Sabzavotlarni, un, yog', guruch kabi masalliq'larni sotib olishda xarajatlarni ozroq qilish uchun ulgurji bozordan xarid qiladi. Ish davomida elektr energiyasidan, suvdan iloji boricha tejamkorlik bilan foydalanadi. Chunki bular uchun ham oylik to'lovlarini to'laydi.

Bilol aka davlatga soliqlarni o'z vaqtida to'lab turadi. Chunki u solig'i to'langan daromadgina halol bo'lishini va baraka keltirishini yaxshi biladi.

U kishi tayyorlagan mazali taomlar va shirinliklarni sotib olish uchun har bir o'quvchi oshiqadi. Taomlarning **narxi** albatta o'z **xarajatini** qoplaydi va shunga yarasha **foyda** keltiradi.

5. Rasmlarga qarab gaplarni to'ldiring va yozing.

Nilufar  ga kirib, 1 ta , 2 ta

, 1 ta , 1 stakan  sotib oldi.

Dugonasi Nargiza ham uning ketidan kirib kelib, 1 stakan

 va 1 ta  sotib oldi.

6. Maktabda 100 ta o'quvchi bor. Oshxonangizda esa 200 ta tarelka, 10 ta cho'mich, 5 ta kagir, 100 ta qoshiq, 100 ta vilka, 100 ta stul va 25 ta stol bor. O'quvchilar birdaniga kirib ovqatlanishi mumkinmi?

7. 60 000 so'mga sotib olingan oshxona plitasi 10 yil xizmat qildi. Besh oydan so'ng yana shu narxda oshxona plitasini sotib olish uchun oshpaz har oyda qanchadan pul jamg'arishi kerak?

8. Katalarni oshxona mavzusidagi "Q" bilan boshlanadigan so'zlarni ishlatib to'ldiring. So'zlarni daftaringizga yozing.

Q				
Q				
Q				
Q				
Q				

9. Somsachi 200 dona somsa tayyorladi va bozorga olib bordi. U qancha miqdorda xarajat qilishini hisoblab jadvalni to'ldiring.



Xarajat turi	Miqdori	Narxi	Jami

10. O'qing.



Oshxona daromadlari va xarajatlari



Oshxonamizning ish faoliyati bilan ko'pdan buyon qiziqamiz. Oshpaz ovqat, turli xil non mahsulotlari va shirinliklarni biz o'quvchilar uchun pishirib beradi. Biz esa ularni o'z ehtiyojimiz hamda pulimizga yarasha sotib olamiz. Oshpaz taomlar, non mahsulotlari va shirinliklarni sotishdan anchagina pul to'playdi. Bu pul albatta oshpazning **daromadi** hisoblanadi. Shuncha pulni u kishi nima qilar ekan-a? Ba'zida oshpaz bozordan turli xil masalliqar sotib olib keladi. Yoki hamma pulni mana shu masalliqarlarni sotib olish uchun sarflarmikan? Yo'q, oshpaz olgan daromadining bir qismini davlatga soliq sifatida to'laydi. Bu uning xarajatlarning eng asosiylaridan biridir.

Chunki soliq to'lamasdan ishlasa va foyda ko'rsa, bu foyda noqonuniy hisoblanadi. Bunday foyda ko'rgan odam esa albatta jazolanishi mumkin.

Lekin pulning bir qismi foyda sifatida oshpazning o'ziga qoladi. Bo'lmasa oshpaz bunchalik jon kuydirib ishlamagan bo'lar edi-da, deya o'zlaricha fikrlashdi o'quvchilar.

Savollarga javob bering.

1. Siz qanday xulosa chiqardingiz?
2. O'quvchilar to'g'ri fikr yuritdi deb o'ylaysizmi?
3. Foyda olish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

Foydani hisoblash uchun daromaddan xarajetni ayiramiz. Ya'ni:

$$\text{Foyda (F)} = \text{Daromad (D)} - \text{Xarajat (X)}$$

**Kattalar
uchun**

11. Savollarga javob bering a), b) javoblardan to'g'risini jadvalga yozing.

- 1) Eng aziz mahsulotni pishiriladigan jihoz nima?
- 2) Xomashyo xarajati nimaga bog'liq?
- 3) Xomashyo bilan mahsulotning farqi bormi?
- 4) Biror mahsulotni ishlab chiqarishdan maqsad nima?
- 5) Xarajat bilan daromad teng bo'lishi mumkinmi?



	1	2	3	4	5
Namuna: a)					

- | | |
|--|--|
| <p>a) 1) Tandir
2) Faslga
3) Ha
4) Foyda olish
5) Yo'q</p> | <p>b) 1) Qozon
2) Bozordagi talabga
3) Yo'q
4) Daromad olish
5) Ha</p> |
|--|--|

12. Ushbu holni izohlab bering. Bunday holatlarda daromad solig'i to'lanadimi?



1) X D F

530 525

2) X D F

530 820 290

13. Rasmni kuzating va savollarga javob bering.



1. Qaysi o'quvchi tejamkorlikka rioya qilmoqda?
2. Siz qanday xarajat qilar edingiz?
3. Rasmdagi o'quvchilar oshpazga qanday yordam berishi mumkin?
4. Ular nima qilmasliklari kerak deb o'ylaysiz?

14. O'qing.

O'quvchilarning tejamkorligi



Bizning maktab o'quvchilari har qanday ishni bajarishda o'z oldilariga tejamkorlikni maqsad qilib qo'yadilar. Oshxonaga kirganda o'ziga kerakli, ya'ni ehtiyojiga loyiq oziq-ovqatni xarid qiladilar. Ular har qanday vaziyatda ham tejamkorlikka rioya qilishni o'z vazifalari deb biladilar. Lekin hamma birdek emas ekan. 6-sinf o'quvchisi Alisherning ayrim odatlari ko'pchilik do'stlariga yoqimsiz tuyuladi. Mana, hozir katta tanaffus. Hamma o'ziga biror narsa xarid qilmoqchi bo'lib, mahsulotlarni ko'zdan kechirmoqda. Alisher yugurib keldi-da, odobsizlarcha oraga suqilib kirdi.

— Aka, menga 1 ta ovqat, 1 ta obi non, 2 ta shirin kulcha va 1 choynak choy berib yuboring, – dedi u.

Oshpaz ham hayron bo'lganicha, uning aytganlarini berdi. Alisher apil-tapil ovqatlanishga tushdi. Qorni to'ydi shekilli, non va shirinkulchaning yarmini qoldirib, shoshilganicha o'rnidan turib ketdi. Darsga kirish uchun qo'ng'iroq chalingan edi. Shoshilganidan piyola yerga tushib singaniga ham e'tibor bermay, yugurganicha oshxonadan chiqib ketdi.

Oshpaz va 2 ta o'quvchi uning harakatlarini ajablanganlaricha kuzatib qoldilar.

Savollarga javob bering.

1. Alisherning harakatlarini siz qanday izohlaysiz?
2. Siz Alisherning o'rnida bo'lganingizda nima qilar edingiz?
3. Mahsulotlarni tejab-tergamaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

- 15. Maqolni o'qing va uni izohlang.



Nonning butuni ham non,
Uvog'i ham non.



- 16. Savollarga javob bering.



1. Maktab oshxonasida qanday jihozlar bor?
2. Oshxonadagi yaroqsiz jihozlarni qaysi mablag' evaziga yangilash mumkin?
3. Maktab oshxonasidagi yaroqsiz jihozlarning o'rnini qoplash evaziga oziq-ovqatlar qimmatlashib ketishi mumkinmi?
4. O'quvchilar qanday qilib bu holning oldini olishga ko'maklashishlari mumkin?

III. MAKTAB USTAXONASINING IQTISODIYOTI

3.1. Ustaxona jihozlari. Ustaxonadagi xomashyo materiallari

1. O'qing.


Akrom 4-sinfda o'qiydi. U iqtisodiyot faniga juda ham qiziqadi. Kelajakda tadbirkor bo'lmoqchi. Shu bilan birga yana biror hunarni egallashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ularning maktabida duradgorlik to'garagi ochildi. U shu to'garakka a'zo bo'ldi. To'garak maktab ustaxonasida ish olib boradi.

Akrom maktabdan kelib tushlik qildi-yu, ustaxonaga ketdi. Ustaxona keng, yorug' va ozoda. Stol, stul, shkaf va turli xil ustaxonaga tegishli bo'lgan rasmlar bilan jihozlangan. Usta Akromga duradgor uchun kerakli bo'ladigan ish qurollarini: arra, bolta, bolg'a, ombur, randa, iskana, parma va boshqa duradgorlik asboblari ko'rsatdi.



Akrom tez kunda duradgorlik sirlarini o'rganib oldi. U turli xil buyumlarni yasay boshladi. Usta shogirdlariga Akromning juda ham zehni bola ekanligini va kelajakda uning yaxshi duradgor bo'lishini aytdi.

Savollarga javob bering.


1. Ustaxonaning qanday jihozlanganligini tavsiflab bering.
2. Ustaxonada qaysi ish qurollari bor ekan?
3. Maktab ustaxonasi jihozlar bilan qaysi mablag' evaziga ta'minlanadi deb o'ylaysiz?
4. Sizing maktab ustaxonangizda qanaqa ish qurollari bor?
5. Duradgorlik asboblardan nima maqsadda foydalaniladi?




2. Quyidagi narsalar nomini to'liq yozing va hosil bo'lgan so'zni o'qing.



3. Rasmni kuzating va savollarga javob bering.



1. Arra butun narsani maydalab yuboradi. Bu zarar keltirmaydimi? Undan nima maqsadda foydalaniladi?
 2. Arralanmagan yog'ochdan biror mahsulot tayyorlasa bo'ladimi?
 3. Nima sababdan arralangan taxta arralanmaganidan qimmatroq turadi?
4. Rasmlardagi mahsulotlarni tayyorlash uchun qanday asbob-uskunalar dan va qanday xomashyolardan foydalaniladi?



Asbob-uskunalar



Xomashyolar



3.2. Ustaxonada tayyorlangan mahsulotlar. Ustaxonada ishlab, qanday daromad olish mumkin? Ustaxona xarajatlari

1. O'qing.



Maktab ustaxonasi mahsulotlari

Maktab ustaxonasini o'quvchilarni kelajakdagi tadbirkorlikka tayyorlash maskani deb atash mumkin. Chunki u yerda kelajakda o'quvchilar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning dastlabki malakalari egallanadi.

Mana, maktab ustaxonasida maktab uchun kerakli bo'lgan mahsulotlar tayyorlana boshlandi. Ustaxonada 100 ta parta, 200 ta stul, 10 ta shkaf yasash hamda yog'och qirgindilaridan chizg'ich tayyorlash rejalashtirildi.



Usta shogirdlari bilan tezda ishga kirishib ketdi. 25 kunda maktab uchun kerak bo'lgan parta, stul va shkaflar tayyor bo'ldi. Ularni chiroyli qilib bezadilar. Ortib qolgan yog'ochdan esa chizg'ich tayyorlash boshlandi. Chizg'ich tayyorlash mashaqqatli ish ekan. Bu ishga ko'p mehnat sarflandi. Shunga qaramay, chizg'ich ham tayyor bo'ldi. Ustaxonada tayyorlangan mahsulotlar maktabga topshirildi.

Bu mahsulotlar maktab uchun bozordan xarid qilganga qaraganda ancha arzon tushdi. Bu maktab ustaxonasining maktabga keltirgan foydasi bo'ldi.

Kelajakda tadbirkor bo'lib shu ishlarni o'zimiz mustaqil uddalasak va tayyorlagan mahsulotlarimizni bozorga olib chiqib sotsak, biz mo'may daromad qilishimiz va ushbu daromadimizdan davlatga soliqlar to'lab yurtimizning gullab yashnashiga hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Savollarga javob bering.

1. Maktab ustaxonasi maktab uchun qanday foyda keltirdi?
 2. Ustaxonada yana qanday mahsulotlar yasash mumkin? Ularni bozorga olib chiqib sotish mumkinmi?
 3. Sizing ustaxonangizda stol, stul yasash uchun imkoniyat bormi?
 4. Maktabda ustaxona bo'lishi zarurmi? Nima uchun?
 5. Maktab ustaxonasida tadbirkorlikni qanday o'rgansa bo'ladi?
2. Rasmda berilgan xomashyolardan qanday mahsulotlar tayyorlasa bo'ladi?



3. O'qing.

Ustaxonada ishlab, qanday daromad olish mumkin?

Ustaxona maktabga tayyor bo'lgan mahsulotlarni topshirganidan so'ng, bir nechta oshxonalardan stol yasab berish uchun buyurtmalar oldi. Maktab oldidagi oshxonaga 20 ta, yana bir oshxonaga 25 ta stol yasab berishga kelishildi. 15 kunda mahsulot tayyor bo'ldi. Har bir stolga kelishilgan holda



45 000 soʻmdan narx belgilandi. Ustaxoning hisobi boʻyicha daromaddan xarajatlarni va davlatga toʻlanishi lozim boʻlgan soliqlarni chiqarib tashlaganda 80 000 soʻm sof foyda qoldi. Bu pulni maktab gʻaznasiga topshirdilar. Bu pullarga maktabga zarur mahsulotlar sotib olish mumkin.



Savollarga javob bering.

1. Maktab ustaxonasi qanday buyurtmalarni bajardi?
2. Ustaxona necha soʻm sof foyda oldi?
3. Ustaxonada yana qanday yoʻl bilan daromad olish mumkin?
4. Sizing maktabingiz ustaxonasida ham shunday ishlar qilinadimi?

4. Rasm asosida topshiriqni bajaring:




- a) Rasmdan duradgorlik asboblari ajrating;
 b) Kursi yasash uchun qaysi asboblari kerak bo'ladi? Nimalar yetmaydi?
5. Bitta sandiqcha tayyorlash uchun 1 700 so'mlik xomashyo ketadi, 17 ta sandiqchaga necha so'mlik xomashyo ishlatiladi?



6. O'ylab ko'ring va shu haqda fikringizni yozing.

Faraz qiling, siz maktab ustaxonasini boshqarasiz. Maktab ustaxonasi hech qanday daromad keltirmaydi. Siz qanday choralar ko'rgan bo'lar edingiz? O'z rejangizni bayon qiling.

7. Bo'g'inlarni o'rniga qo'yib maqolni o'qing va izohlang.



8. O'qing.

Maktab ustaxonasi xarajatlari

Maktab ustaxonasi o'zi tayyorlagan 10 ta kursini mebel do'koniga 150 000 so'mga sotdi. Ustaxona bu kursilarni

tayyorlash uchun 100 000 so'mlik xomashyo sarfladi. Soliqlarni to'lash uchun 15 000 so'm ajratildi. Mehnat haqiga 18 000 so'm to'landi.

Savollarga javob bering.

1. Ustaxona mahsulot tayyorlash uchun hammasi bo'lib necha so'mlik xarajat qildi?
2. Har bitta kursiga necha so'm xarajat qilingan?
3. Maktab ustaxonasi qancha foyda ko'rgan?

9. Nechta so'z borligini aniqlab yozing.

1. A R R A N D A R A X T A X T A
2. A R R A N D A R O M A D

10. Siz 4 ta stol tayyorlayapsiz. Quyidagi jadvalni taxminan to'ldiring.

Kerakli xomashyolar	Miqdori	Narxi	Jami
<i>Mix</i>	<i>50 ta</i>	<i>40 so'm</i>	<i>2000 so'm</i>

1. O'quvchilar maktab ustaxonasiga kerakli biror xomashyoni o'zlari yetkazib berishlari mumkinmi?
2. Siz maktab ustaxonasida tayyorlangan birorta mahsulotga sarflangan xarajat, olingan daromad va foydani aniqlay olasizmi?

IV. O'QUV-TAJRIBA MAYDONI

4.1. O'quv-tajriba maydonidagi iqtisodiy faoliyat

1. O'qing.

Bu yil maktab o'quv-tajriba maydonidagi ekinzor uchun ajratilgan yerning bir qismi biz, 4-sinf o'quvchilariga berildi. Bahorgi ta'til kunlari boshlandi. O'qituvchi rahbarligida yerni chopish, yumshatish ishlari bajarildi. Bu ishlar bajarilganidan so'ng: "Tayyorlangan yerga nima eksak ekan?" degan savol tug'ildi. Shunda Doniyor: "Bu yerga sabzi ekaylik, chunki o'tgan yili sabzi juda arzon bo'lib, sabzi ekan odamlar ancha zarar ko'rgan ekanlar. Ular bu yil sabzi ekmaydilar", – dedi. Bolalar uyidan sabzi urug'ini olib keldilar. Sabziga moslab jo'yaklar olindi.



Sabzi urug'ini sepib, suv quyib, yaxshilab qondirildi. Nihoyat sabzilar unib chiqdi. Ikki haftadan keyin yana suv quyib, begona o'tlardan tozaladik. Yer tagida oltindek sabzilar pishib yetildi. 200 kg sabzini maktab oshxonasiga, 200 kg sabzini bolalar bog'chasiga berdik.

Biz maktab ustaxonasini maktab o'quvchilari uchun tadbirkorlikka tayyorlanish maskani deb atagan edik. Maktab o'quv-tajriba maydoni ham o'quvchilarni kelajakdagi fermerlikka tayyorlashga xizmat qilishi mumkin.

Faraz qilaylik, yetishtirilgan sabzini bozorga olib chiqib sotildi. Bunda har bir kilogramm sabzining narxini 200 so'm deb hisoblasak, 80 000 so'm daromad qilgan, bu puldan davlatga soliq to'lovlarini to'lagandan keyin qolgan pulni yana yangi hosil uchun sarf qilgan bo'lar edik. Natijada bizning tadbirkorlik faoliyatimizdan o'zimiz ham naf ko'rgan, davlatimiz budjetining to'lishiga ham o'z hissamizni qo'shgan bo'lar edik.

Biz mana shunday o'y-xayollar bilan yozdagi ta'til paytida sabzidan bo'shagan yerga ishlov berib, jo'yaklarga ajratdik. Ikkinchi hosilga tayyorlab qo'ydik. Endi bu yerga turp va sholg'om ekmoqchimiz.

Savollarga javob bering.

1. Doniyor nima uchun bu yil sabzi kam bo'ladi deb o'yladi? Uning fikri to'g'rimidi?
 2. Doniyorning fikrlashini ishbilarmonlik deb atasa bo'ladimi?
 3. Sabzidan qancha daromad olindi?
 4. Sizing maktab o'quv-tajriba maydoningizda ham shunday faoliyat amalga oshiriladimi?
2. Maktab tajriba maydonida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish mumkinmi? Qanday mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadga muvofiq?



3. Rebus-krossvordni yeching va hosil bo'lgan jumlani o'qing.

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14

4. O'quv-tajriba maydonidagi iqtisodiy faoliyat to'g'risida 5 ta gap tuzing va daftaringizga yozing.



5. 1 m kv yerdan o'rtacha 5 kg karam, 3 kg pomidor yoki 4 kg sabzi hosili olish mumkin bo'lsa, 36 m kv yerdan qancha hosil olish mumkin?



6. Maktab o'quv-tajriba maydonida ishlayotgan 24 ta o'quvchi uchtdan o'rik ko'chati o'tqazdi. Har bir ko'chat 500 so'mdan xarid qilingan bo'lsa, jami ko'chatlar uchun qancha pul to'langan?

7. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Rasmlardan qaysi mahsulotlarni maktab o'quv-tajriba maydonida yetishtirish mumkin?
2. Qaysilarini maktab bog'idan olsa bo'ladi?
3. Qaysilarini bizning sharoitda yetishtirishning umuman'iloji yo'q?

4.2. O'quv-tajriba maydonidagi faoliyatni tashkil etish

1. Savollarga javob bering:

- 1) Maktabingizdagi o'quv-tajriba maydoniga qanday ekinlar ekiladi?
- 2) O'quv-tajriba maydonidan olingan daromad nimalarga sarflanadi?
- 3) Olingan foyda qanday aniqlanadi?
- 4) O'quv-tajriba maydonidagi ishlar qanday uyushtiriladi?

2. O'qing.

Ishlab chiqarish faoliyatining ish rejasi

O'quv-tajriba maydonidan sinflar bo'yicha biror ekin yetishtirish uchun yer ajratib beriladi. Ishni yaxshi tashkil qilish uchun o'qituvchi rahbarlik qiladi. Bajariladigan ishlarni o'quvchilar o'zaro taqsimlaydilar.

Bir o'quvchi ish yurituvchi sifatida ishlarni rejalashtiradi, yana biri unga narx-navo haqida ma'lumot berib turishga tayinlanadi, boshqasi suvchi etib tayinlanadi. Qolgan o'quvchilar ham ekinni parvarishlash uchun zarur bo'lgan ishlarga tayinlanadilar.

Hisobchi barcha xarajatlar hisobotini yuritadi.

Shunday qilib, bolalar rejali ish faoliyatini yuritadilar. Hosil yig'ib olingandan so'ng daromad hisoblanib, xarajat bilan taqqoslanadi. Daromad bilan xarajat orasidagi farq, ya'ni sof foyda maktab jihozlarini yangilash, ta'mirlash, a'lochi o'quvchilarni mukofotlash kabi tadbirlarga sarflanadi.

Savollarga javob bering.

1. O'quv-tajriba maydonida ishlashning o'quvchilarga qanday ahamiyati bor?



2. Faoliyatni rejalashtirishning qanday zaruriyati bor?
3. Ish faoliyati yaxshi yuritilsa, natija qanday bo'ladi-yu, yomon yuritilsa, qanday bo'ladi?

3. Topshiriqni yozma ravishda bajaring.

1. Maktabingiz o'quv-tajriba maydonidan sinfingizga ajratib berilgan yerda faoliyat yuritish rejasini tuzing.
2. Sinfdoshlaringiz bilan nima ekish to'g'risida maslahatlashing.
3. Rejalashtirilayotgan ekinni yetishtirish uchun sarf qilinishi mumkin bo'lgan xarajatlarning va olinishi mumkin bo'lgan daromad va foydani taxminan hisoblang.

4. O'qing.

Nodir, G'ayrat, Sardor va Farhod maktab bog'ining bir chekkasida kichkinagina maydoncha bo'sh yotganini ko'rib qoldilar. Ular sinf rahbaridan ruxsat so'rab, o'sha yerga terak ko'chati ekmoqchi bo'lishdi. Erta bahor bo'lgani uchun ular uylaridan 50 tup terak ko'chati olib keldilar. Ko'chatlarni ikki qator qilib ekib chiqishdi.

Bolalar bo'lajak tadbirkorlar sifatida bo'lg'usi daromad va xarajatlarni hisob-kitob qila boshladilar.

— Agar shu ko'chatlar bir necha yildan keyin katta daraxtlarga aylansa, har birini 30 000 so'mdan sotsa bo'ladi, — dedi G'ayrat.

— Unda bizning 50 tup teragimiz 1 500 000 so'm daromad olib kelgan bo'ladi. Shuncha pulga nimalar olsa bo'ladi? — dedi Nodir.

— Sen bu puldan birinchi navbatda davlatga soliq to'lashni unutma. Chunki shundagina biz haqiqiy, halol tadbirkor bo'lamiz, — deya gapga aralashdi Sardor.

Ular shirin orzular bilan ko'chatlarini sug'orishning harakatiga tushdilar.



Savollarga javob bering.

1. Bolalar qanday reja tuzdilar?
2. Bolalarning tadbirkorlikka layoqatlari bormi?
3. Bolalar terak ko'chatidan qancha daromad olmoqchilar?
4. Sardor soliq to'lashni nima uchun bunchalik muhim deb biladi?

5. Quyidagi topshiriqlarni mustaqil bajaring.


1. Maktabning daromad manbalarini sanab bering.
2. Maktabning pul jamg'armasini daromad manbaiga aylantirish yo'llarini bayon qiling.



3. Maktabga daromad kelishiga o'quvchilar qanday hissa qo'shishlari mumkin?
4. Maktab tajriba maydonini, oshxonani, ustaxonani daromad manbalariga aylantirish yo'llarini ko'rsating.

6. O'quvchilar o'quv-tajriba maydoniga hammasi bo'lib 210 tup daraxt ko'chati ekishlari kerak. Bitta sinfda 32 o'quvchi, ikkinchisida o'quvchilar birinchisidan oltita ortiq. Har bir o'quvchi bir xil miqdorda ko'chat ekkan bo'lsa, bitta o'quvchi qancha ko'chat ekkan bo'ladi?

7. Rebus-krossvordni yechsangiz mavzuga oid jumlani bilib olasiz.



V. KOMMUNAL XIZMATLAR



5.1. Suv uchun haq to'lash. Elektr uchun haq to'lash.

1. O'qing.

Biz qanday suvni iste'mol qilamiz?



Abbos bilan bobosi televizordan berilayotgan qiziqarli filmni tomosha qilardilar. Film dengizchilar haqida edi.

Moviy dengizda kema suzib borardi. Kema yo'ldan adashgan, dengizchilarning suv va oziq-ovqati tugab qolgan edi. Kemadagi bir yosh bola birdan:

– Suv, suv! – deb qichqira boshladi. Shunda Abbas bobosidan ajablanib so'radi:

– Bobo, atrof to'la suv bo'lsa ham nega bu bola suv so'rayapti? Dengizdagi suvdan olib ichsa bo'lmaydimi?

Shunda bobosi Abbosga tushuntirdi:

– O'g'lim, dengiz suvi ichishga yaramaydi, chunki u sho'r. Bizning ichimlik suvimiz esa boshqa! Ko'rdingmi, bolajonim, suvsiz hayot kechirish qanday og'irligini.



Tabiatda ikki xil suv bo'ladi: sho'r va chuchuk suv. Biz chuchuk suvni iste'mol qilamiz. Chuchuk suv bizga suv quvuri orqali yetkazib beriladi. Daryo va ariqdagi suvlar ham chuchuk suv. Biz bu suvlardan ekinlarni sug'orishda foydalanamiz. Foydalanganimiz uchun haq to'laymiz. Suvni tejab, to'g'ri foy-


dalanishimiz kerak. Chunki chuchuk suv zaxirasi juda oz. Suvsiz hayot bo'lmashligini, mana ko'rib turibsan. Tushundingmi, o'g'lim?

Abbos bundan oldin ichimlik suvining ozligini, unga haq to'lanishini bilmasdi. Shundan so'ng u suvni tejash zarurligini tushunib oldi.

Savollarga javob bering.

1. Tabiatda necha xil suv bo'ladi?
2. Nima uchun dengiz suvidan ichib bo'lmaydi?

2. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. 1- va 2-rasmlarning suvga qanday aloqasi bor?
2. Nima uchun suvga haq to'laymiz?
3. 3- va 4-rasmlarni taqqoslab sharhlang.

3. O'qing.

Turmushda elektr asboblaridan ko'p foydalaniladi. Ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Dazmol, televizor, chang yutgichni tokka ulangan holda qoldirib bo'lmaydi. Uydan chiqib ketayotganda, albatta, elektr asboblarini o'chirilgan yoki o'chirilmaganligini tekshirib ko'rish kerak.

4. O'qing.

Elektr toki qayerdan keladi?



Sobir 4-sinfda o'qiydi. U 5 yoshli ukasi Abrorni juda yaxshi ko'radi. Abror yosh bo'lishiga qaramay qiziquvchan. Kechki ovqatdan so'ng ular rasmiy ertak kitobni tomosha qilayotgan edilar. Birdan chiroq o'chib qoldi. Shunda Abror akasidan so'radi:

– Aka, nega chiroq o'chib qoldi?

– Chirog'imiz elektr toki yordamida yonadi. Agar tok kelmay qolsa, chiroq o'chib qoladi va boshqa elektr asboblari ham ishlamay qoladi, – dedi Sobir.

– Aka, elektr toki qayerdan keladi?

Siz ham Abrorning savoliga javob izlab ko'ring-chi?

5. She'ni yod oling.

Anvar Sobirga
Berdi bir savol:
Tok kelar qayerdan?
Menga ayta qol.

Biroz o'ylanib,
Boshin qashdi u.
So'ngra shunday deb
Javob berdi u.



Soyini xip bo'g'ib,
Ishlar katta GES,
Generator yakori
Aylanadi tez.

Go'yoki qishloqqa
Chiqqan kabi kun.
Ming-ming chiroqlardan
Yorug' bo'lar tun.



6. 1 kVt-soat elektr energiyasi 43 so'mu 10 tiyin.
- 1) Duradgor yog'och kesish uchun uskunadan foydalanib, 22 kW-soat elektr energiyasi ishlatdi. U elektr uchun qancha haq to'laydi?
 - 2) Usta uskunasida ishlab, 14 kW-soat, shogirdi esa 8 kW -soat elektr energiyasi sarfladi. Kim elektr energiyasi uchun ko'proq haq to'laydi va qanchaga ko'p?
7. Tantivoy jo'mrakdan 2 000 litr suvni behuda oqizib yubordi. U oila budjetiga zarar yetkazdimi?
8. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Rasmda tasvirlangan uy-ro'zg'or buyumlarining nomlarini ayting.
2. Ular nima uchun kerak?
3. Bu buyumlar nima yordamida ishlaydi?
4. Ulardan qanday foydalanish kerakligini bilasizmi?

9. Rasmlarni kuzating va xulosangizni so'zlab bering.

Elektr hisoblagich nima uchun ishlatiladi?



Hisoblagich uy-ro'zg'orda sarf qilingan elektr energiyasini aniqlaydi. Hisoblagich ma'lumotiga qarab davlatga elektr energiyasi uchun haq to'laymiz. To'langan haq elektr tokini ishlab chiqarishga va xonadonlarga yetkazib berishga sarflanadi.

Davlatga ishlatilgan elektr energiyasi uchun haq to'lash ham xuddi soliqlarni to'lash kabi muhimdir. Chunki mana shu pullar orqali davlat budjeti to'ladi va katta-katta elektr energiyasini ishlab chiqaradigan va uzatadigan inshootlarni qurish va ta'mirlashga mablag' to'planadi.

7. Bo'sh kataklarga mos harflarni qo'yib to'ldiring. Hosil bo'lgan so'zni sharhlang.



5.2. Gaz uchun haq to'lash. Yana qanday to'lovlarni bilasiz?

1. O'qing.

Kishilar turmushda suv, elektr energiyasi va tabiiy gazga ehtiyoj sezadilar. Bu ne'matlar odamlarga davlat tomonidan yetkazib beriladi. Bular xalq boyligidir. Bu boylıklardan to'g'ri va tejamkorlik bilan foydalanish lozim. Chunki ular tuganmas emas.

Bolalar, hayotimiz uchun zarur bo'lgan bu boylıklardan to'g'ri foydalaning!

2. "Gaz – tabiiy boyligimiz", "Gazdan tejab foydalanaylik!" mavzularida hikoya tuzing va uni gapirib bering.

3. Saidaning uyidagi gaz o'lchagich 1 442 birlikni, ertasiga esa 1 481 birlikni ko'rsatib turibdi. Saidaning oilasi shu bir kunda qancha gaz ishlatgan?

4. Korxonada bir oyda 854 birlik gaz ishlatgan, 1 birlik gazning narxi 200 so'mga teng bo'lsa, korxonada buning uchun davlatga qancha haq to'laydi?

5. Birinchi xonadon yil davomida 145 birlik, ikkinchi xonadon esa 154 birlik gaz ishlatishdi. Ikkinchi xonadon qancha ko'p gaz ishlatgan? Ikkinchi xonadon birinчисiga qaraganda gaz uchun necha so'm ortiq haq to'laydi?



6. Oilangizda gaz o'lchagich bir kunda qanchaga aylanganini aniqlang. Bu jarayonni ertasiga ham kuzating. Ikkala sonni taqqoslang. Qaysi kunda ko'p gaz ishlatilgan? Buning sabablari nimada?



VI. MAKTAB IQTISODIYOTIDA O'QUVCHINING O'RNI

6.1. O'z narsalariga va maktab mulkiga tejamkorlik

1. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Qaysi narsalar shaxsiy mulk bo'lishi mumkin?
2. Qaysi narsalar maktab mulki hisoblanadi?
3. Maktab mulkini qanday saqlash kerak?

2. She'rni ifodali o'qing.

“O'z-o'zini tanqid”

(She'r)

Birdan parta tagidan,
Arz etar yirtiq kitob:
– Xol jonsarak qo'lida
Ezilib bo'ldim betob.
Tanlarim yara-chaqa,
Muqovam qayda qolgan?



Yuzu ko'zim kir va dog',
Varaqlarim yo'qolgan.
Kitob so'zi tugamay,
Daftar fig'oni falak.
Yozilmay qush bo'laman
Yo varrakka dardarak.

3. O'qing.

Ulkan xazina

Kitob bizning eng yaqin do'stimiz. Uni ko'z qorachig'idek as-rash kerak. Afsuski, hamma o'quvchilar ham bu qoidaga amal qilayotir deb bo'lmaydi. Ba'zi kitoblarni qo'limga olganimda, uning sahifalaridagi turli yozuvlar, imzolarni, buklangan, yirtilgan varaqlarni ko'rib xafa bo'lib ketaman. Kitoblarni nashr etish uchun qanchadan-qancha mablag' sarflanadi, axir?!



Maktab darsliklari va boshqa kitoblar ma'lum vaqt ishlatilgandan so'ng eskirib, foydalanishga yaroqsiz bo'lib qoladi. Shunda uni qayta ishlashga topshirish katta ahamiyatga ega. Chunki 1 tonna yaroqsiz qog'ozdan 750 kg a'lo sifatli qog'oz olinadi. Bunda kam mehnat sarflanib, ko'p miqdorda energiya

va boshqa kimyoviy moddalar tejaladi. Mana shuncha qog'oz olish uchun esa 5 kub metr yog'och talab qilinadi. Hozirgi davrda qog'ozga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda.

Bebaho ma'naviy boylik bo'lgan kitoblardan to'g'ri va samarali foydalanish, ularni asrab-avaylashimiz kerak.

Savollarga javob bering.

1. Siz kitob va qog'ozlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Siz uyingizdagi yaroqsiz kitoblarni nima qilasiz?
3. Nima uchun kitoblarni asrab-avaylash kerak?

4. O'qing.



Sening mulking

Kitob – keng dunyo,
So'zi nur – ziyo.
Qo'ysang mehring,
Oshar zehning.

Nozim kitobidan samolyot rasmi tasvirlangan varag'ini yirtib oldi. Yonida o'tirgan o'rtog'i Kozim.

– Nega kitob varag'ini yirtding? – dedi.

– Sening ishing bo'lmasin, yirtsam o'zimning kitobimni yirtдим, – deb javob berdi Nozim.

Buni eshitgan o'qituvchisi shunday dedi:

– Nozimjon, senga kitobni kim olib berdi?

– Dadam olib berdi, – dedi Nozim.

– Barakalla. Axir, dadang bu kitobni senga pul sarflab olib bergan. Shunday ekan, bu kitobingni asrab-avaylab tutsang, kelasi yili ukang ham foydalanishi mumkin, – dedi o'qituvchisi.

Nozim o'z qilmishidan uyalib ketdi. Uni uyalishiga sabab o'z mulki bo'lgan kitobini asrab-avaylash uning burchi ekanligini esiga tushib qolgani edi.

Shundan so'ng Nozim o'zining mulkiga qanday munosabatda bo'lishni, tejamkorlikni o'rgandi.


Savollarga javob bering.

1. Nozim to'g'ri ish qildimi?
 2. O'zi egalik qilayotgan narsaga qanday munosabatda bo'lish kerak deb o'ylaysiz?
 3. O'quvchi maktabda qanday narsalarga egalik qila oladi?
5. Tushirib qoldirilgan so'zlarni toping va gaplarni o'qing.
1. Har bir o'quvchi ... ni toza saqlashi kerak.
 2. Zaynobiddin ehtiyotsizligidan "Tabiatshunoslik" darsida biz uchun eng kerakli bo'lgan dunyo ... sini yirtib qo'ydi.
 3. Iqtisodiyotni yaxshi o'rgangan o'quvchi har ishda ... likni o'ziga maqsad va vazifa tariqasida qo'llaydi.
 4. Maktab mulkini asrash har bir ... ning vazifasidir.
 5. ... lar taxtasidan yakshanba kuni sayohatga borishimizni bilib oldim.
 6. Matnni tarjima qilishda ... dan foydalanish kerak.
 7. ... – bilim manbai.
 8. Sobir ... ingni berib tur, men to'g'ri chiziqni chizib olay.
6. "Sirli kataklar" sirini oching.

Qator-qator kataklar,
Unda yashirin so'zlar.
Zehning qo'yib o'ylab boq
Ochilur sirli jumboq.

SH	A			I				M			K
O		L		V		Y			U		
	A			A			M				I
J		M		A			U		K		

7. O'quv-qurollari nomlarini bo'sh kataklarga mos ravishda yozsangiz, uning bu jihozlarga qay tariqa munosabatda bo'lishi lozimligini bilib olasiz.



6.2. O'z kuchi bilan ko'rgazmali o'quv qurollarini yasash. Xo'jayinlik hissi

1. O'qing.

O'tgan mehnat darsimizda o'qituvchimiz:

– Kelasi dars uchun karton qog'oz, yaroqsiz eski tunuka qopqoq va sim olib kelinglar, – deya eslatdi. Mana, bir hafta o'tdiki, hamon men o'ylayman. Qiziq, o'qituvchimiz nima uchun bu narsalarni olib kelinglar, dedi.

Mana, men kutgan daqiqa ham yetib keldi. O'qituvchimiz doskaga soat rasmi va qo'lda yasalgan qog'oz soatni ila boshladi.

Demak biz ham mana shunday soat modelini yasash ekanmiz-da! O'qituvchimiz men o'ylaganimdek, bugungi yangi mavzuumiz soat modelini yasash ekanligini aytdi.



– Hammangiz sirkulning kengligini 10 sm qilib oching va kartonga shu o'lchamdagi aylana shaklini chizing va uni qirqib oling. Tunuka qopqoqdan esa 3 xil kenglikdagi va uzunlikdagi mana bunday soat millarini qirqing va ularni bir-biriga sim orqali soat modelining markaziga joylashtiring. Soat modeliga endi raqamlarni yozib chiqing, – deya biz bilan birgalikda soat modelini yasadi. Biz soat modelini yasash uchun 25 daqiqa sarfladik.

Savollarga javob bering.

1. O'quvchilar soat modelini yasashda nimalardan foydalandilar?

2. Ular soat uchun kerakli narsalarni qayerdan oldilar?
3. Bu modeldan qaysi darslarda foydalansa bo'ladi?

2. Quyidagi savollarga javob yozing.

1. Mehnat qilishdan asosiy maqsad nima?
2. Mehnatning qadr-qimmati deganda nimani tushunasiz?
3. Tejamkorlik va mehnat qadrining qanday bog'liqligi bor?
4. Siz biror narsaga egalik qilishni yaxshi ko'rasizmi?
5. O'zingizning shaxsiy fotoapparingiz bo'lishini xohlaysizmi?
6. O'rtog'ingiz sizning biror narsangizni buzib qo'ysa, qanday ahvolga tushasiz?

3. "Mening kitobim" mavzusida hikoya tuzing va gapirib bering.

4. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib ko'chiring.

1. Ruchkam – mening ... mulkim.
2. Ruchkamga men ... man.

X U L O S A

Aziz o'quvchi!

Siz 4 yil davomida iqtisod, tadbirkorlik, mulk, daromad, soliq kabi tushunchalar bilan tanishdingiz. Umid qilamizki, iqtisod va soliq sohasida olgan bilim, ko'nikma va malakalaringiz sizga kelajak hayotingizda juda asqotadi.

Jamiyatimizning rivojlanishi, insonlarning farovon hayot kechirishlari uchun barcha odamlar halol mehnat qilishlari va soliqlarni o'z vaqtida to'lashlari zarur. Bu har bir fuqaroning muqaddas burchi bo'lib qolmog'i lozim.

SIZ BILAN KEYINGI SINFD A UCHRASHGUNCHA, XAYR!

MUNDARIJA

I. Maktab kutubxonasining iqtisodiyoti

- 1.1. Kutubxona jihozlari. Kitoblar va o'quv
qo'llanmalar. O'quvchi – kutubxona kitoblarini
saqlash bo'yicha iqtisodiy faoliyat qatnashchisi4

II. Maktab oshxonasi iqtisodiyoti

- 2.1. Oshxona jihozlari. Oshxona xarajatlari.
Oshxona daromadlari. Oshxonadagi mahsulotlarni
tejab-tergash har bir o'quvchining burchi9

III. Maktab ustaxonasining iqtisodiyoti

- 3.1. Ustaxona jihozlari. Ustaxonadagi xomashyo
materiallari.....17
- 3.2. Ustaxonada tayyorlangan mahsulotlar. Ustaxonada
ishlab qanday daromad olish mumkin? Ustaxona
xarajatlari20

IV. O'quv-tajriba maydoni

- 4.1. O'quv-tajriba maydonidagi iqtisodiy faoliyat.....25
- 4.2. O'quv-tajriba maydonidagi faoliyatni tashkil etish29

V. Kommunal xizmatlar

- 5.1. Suv uchun haq to'lash. Elektr uchun haq to'lash33
- 5.2. Gaz uchun haq to'lash. Yana qanday
to'lovlarni bilasiz?39

VI. Maktab iqtisodiyotida o'quvchining o'rni

- 6.1. O'z narsalariga va maktab mulkiga tejamkorlik.....40
- 6.2. O'z kuchi bilan ko'rgazmali o'quv qurollarini yasash.
Xo'jayinlik hissi45

**SHERZODBEK SARIQOV, SHAHNOZAXON SARIQOVA,
MALIKAXON JO'RABOYEVA, KOMILJON ALLAMJONOV**

IQTISOD VA SOLIQ ALIFBOSI

Soliq bo'yicha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan,
qayta ishlangan ikkinchi nashr

*Umumta'lim maktablarining
4-sinfi uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — "Yangiyul poligraph service" — 2008

Muharrir — *R. Ko'chkarov*

Texnik muharrir — *A. Kaybisheva*

Musahhih — *Sh. Oripova*

Sahifalovchi — *O. Mamadaliyev*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 14.10.08. Bichimi 70x90¹/₁₆.
«Arial» garniturasida. Ofset bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 3,0.
Nusxasi 100000. Buyurtma № 67.388

"Yangiyul poligraph service" MCHJ tayyor diapozitivlaridan
"G'ulom" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi.
100128, Toshkent. Shayxontohur ko'chasi. 86.